O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Ta’lim bo‘yicha direktori, Kengashi raisi,
professor L.Tuxtasinov

_____
2025-yil 8-may
Davlat jahon tillari universitet Kengashi
yig‘ilishining 7-masalaga 15-ilova

UMUMKASBIY VA IXTISOSLIK FANLARDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVI DASTURI

Ta’lim yo‘nalishi: 60230400 – Madaniyatlararo kommunikatsiyalarning lingvistik ta’minoti (ingliz tili)

Toshkent-2025

Dastur universitet Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan (2025-yil 08 - maydagi 9 (7.7/15) - sonli bayonnoma).

Tuzuvchilar:

D.Saidqodirova – Madaniyatlararo kommunikatsiyaning lingvistik ta'minoti kafedrasi dotsenti, f.f.d.

E.Shermatov – Madaniyatlararo kommunikatsiyaning lingvistik ta'minoti kafedrasi katta o'qituvchisi

U.Madaminova – Madaniyatlararo kommunikatsiyaning lingvistik ta'minoti kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

J.Abduganiyeva – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazi direktori, f.f.f.d (PhD)

N.Atabayev – Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti dekani, f.f.d., dotsent.

Mazkur dastur asosida bitiruvchining umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha egallagan bilim, malaka va ko'nikma darajalari doirasida kompleks tarzda baholanadi.

O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti dekani:
2025-yil "02" - may _____ A.Matyakubov

Medialingvistika va kommunikatsiya kafedrasi mudiri:
2025-yil "02" - may _____ D.Teshabayeva

KIRISH

Mazkur dastur 60230400 – Madaniyatlararo kommunikatsiyalarning lingvistik ta'minoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik fanidan Yakuniy davlat attestasiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi. Dasturda ta'lim yo'nalishida 4 yil davomida talabalarga o'qitilgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlari qamrab olingan.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha davlat attestatsiyasi sinovini topshirishga qo'yiladigan umumiy talablar

Bitiruvchi kurs talabasi:

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini modernizatsiyalash doirasida chet tillarni o'rganish tizimini takomillashtirishga ega bo'lishi;

- chet tillari boyicha milliy va xalqaro standartlarni bilishi va nazariy bilimga ega ekanligini ko'rsata olishi:
- madaniyatlararo kommunikatsiya hamda tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha zamonaviy bilim va ilg'or texnologiyalarni amalda qo'llash;
- xalqaro ilmiy-amaliy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy tadbirlarda madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish;
- davlat va davlatga qarashli bo'lmagan tashkilotlarda chet tillardan tarjimonlik qilish;
- maorif, madaniyat, turizm sohalarida, turli davlat muassasalarida, mehmonxona,
- qo'shma korxonalar, firmalarda ish yurituvchi, referent vazifasida ishlash;
- davlat boshqaruv tizimida faoliyat yurita olish;
- tarjimaning barcha turlarini amalga oshirish;
- mehmonxonalarda va sayyohlik firmalarida menejerlik va ma'muriy xodim sifatida ishlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Tarjima jarayonida: tarjimaning nazariy asoslarni bilishi, tarjimaning grammatik, leksik, frazeologik, stilistik va pragmatik muammolari, tarjima tiplari, leksik muqobillik, tarjimada qo'llaniladigan asosiy metodlar haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi;

- tarjimonlik sohasida: tarjima tarixida yuzaga kelgan muammolar va olimlarning tarjimachilik haqidagi bahslari, fikr-mulohazalari, tarjima sohasida yaratilgan asosiy metodlar, qadimgi davr tarjimonlari va tadqiqotchilarning tajribalarini o'rganish, tarjimashunoslik sohasida mavjud bo'lgan bahslar haqida asosiy masalalarni o'rganish, tarjimani xolisona baholay olish va tahlil qilish, yozma,og'zaki va vizual tarjima qilish malakalariga ega bo'lishi.

Tarjima va ta'lim sohalarida: o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish, o'z faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, - chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga og'zaki va yozma tarjimaning turli usullarini bilishi.

Kasbiy mahorat bo'yicha: o'z bilimi va ko'nikmasini egallagan lavozimida qo'llay olish, mustaqil faoliyat ko'rsatish va professionalizmga ega bo'lishi kerak; madaniyatlararo kommunikatsiya sohasida yetarli kompetensiyaga ega bo'lishi, tarjima ishlarini va xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- chet tillarni jadallashgan usulda o'rgatish va xizmat ko'rsatishni tashkil qilish; xalqaro konferensiyalarda sinxron tarjima qila olish;
- amaliyotda informatsion texnologiyalarni xalqaro va kasbiy standartlarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlari mazmuni

Ushbu fanlarga madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi, tarjima nazariyasi va amaliyoti (madaniyatlararo kommunikatsiya aspektida tarjima amaliyoti) hamda og'zaki va yozma nutq amaliyoti fanlari kiradi.

MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYA NAZARIYASI

Madaniyatlararo kommunikatsiya fani. Madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasining tarixi. Madaniyatlararo kommunikatsiyaning asosiy tushunchalari va tarkibiy qismlari. Madaniyatlararo kommunikatsiyada madaniyat tushunchasi. Madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari. Madaniyatlararo munosabatlarning alohida muloqot sifatidagi xususiyatlari. Madaniyatlararo kommunikatsiyaning asosiy nazariyalari. Madaniyatlararo kommunikatsiyaning kognitiv jihati. Madaniyatlararo kommunikatsiyaning lingvistik jihati. "Xorijiy" madaniyat va etnotsentrizm muammosi. Madaniyatlararo kommunikatsiyada akkulturizatsiya tushunchasi. Madaniyatlararo kommunikatsiyada madaniy shok, madaniy to'siqlar va moslashuv muammosi. Madaniyatlararo kommunikatsiyada stereotiplar muammosi. Madaniyatlararo nizolar. Lingvistik va etnik to'siqlarni yengish hamda samarali madaniyatlararo muloqot. Madaniyatlararo kommunikatsiyada diskurs nazariyasining asoslari. Muloqot strategiyalari va etiketi. Madaniyatlararo kompetensiya shakllantirish va madaniyatlararo kommunikativ trening. Global til global muammo sifatida.

TARJIMA NAZARIYASI

Tarjimaning turlari. Yozma va og'zaki tarjima turlari. Yozma tarjimaning xususiyatlari. Og'zaki tarjima va yozma tarjima o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar. Matn va uslubga ko'ra tarjima turlari. Gumanitar fanlar matnlarini tarjima qilish. Ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish. Badiiy tarjima. Tarjima birligi. Tarjima va til birligi. Tarjima birliklariga turli yondashuvlar. Tarjima birligini belgilash mezonlari. Fonema, morfema, so'z, so'z birligi va gap tarjima birligi sifatida. Tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik. Ekvivalentlik va adekvatlikning xususiyatlari. Ekvivalentlik darajalari. Adekvatlik darajalari. Ekvivalentlikni aniqlash usullari.

Adekvatlikka erishish usullari. Tarjima transformatsiyalari tushunchasi va ularning turlari. Tarjima transformatsiyasi tushunchasi. Tarjima transformatsiyalarining turlari. Leksik, leksik-semantik, grammatik, leksik-grammatik tarjima transformatsiyalari. Tarjima transformatsiyalariga sabab bo'ladigan holatlarning tasnifi. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni tarjima qilish usullari va yo'llari. Milliy xarakterdagi so'zlarni (realiyalarni) tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar. Realiyalarni tarjima qilish yo'llari. Iboralarni tarjima qilish. Gaplarni tarjima qilish. Atamalar va sohaga xos terminlarni tarjima qilish. Tarjimaning uslubiy muammolari. Tarjima va matn. Tarjima va madaniyat. Tarjima va lug'at.

MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYA ASPEKTIDA TARJIMA AMALIYOTI

Kunlik hayot bilan bog'liq mavzulardagi materiallarning yozma tarjimasi. Dialoglarni tarjima qilish. She'riy tarjimani yozish usullari. Hikoyalarning yozma tarjimasi usullari. Chet tillarga tarjima qilingan asarlarga annotatsiyalar yozish. Chet tilida ma'lumotnomalar yozish. Chet tilida diplom va sertifikatlar yozish va tarjima qilish. Chet tilida ariza yozish va tarjima qilish. Chet tilida insho yozish va tarjima qilish. Savdo sohasiga oid hujjatlar va ularni chet tiliga tarjima qilish. Huquqiy sohaga oid hujjat va matnlarni tarjima qilish. Radio, televideniye va gazeta-jurnallardagi ma'lumot va maqolalarni chet tilidan ona tiliga yoki ona tilidan chet tiliga tarjima qilish. Xorijiy telekanallardagi yangiliklarni tarjima qilish. Chet tillarida chop etilgan gazeta va jurnallardagi maqolalar. Davlat rahbarlarining tashriflari haqidagi xabarlarni tarjima qilish. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi turli mavzulardagi yangiliklarni tarjima qilish. Gazeta va jurnallarning xususiyatlari va ularning tarjimada aks etishi. Gazeta va jurnallarning tuzilishi, ruknlari. Gazeta janrlari. Xalqaro va davlatlararo siyosiy va iqtisodiy tashkilotlarga oid matnlar, so'zlar, iboralar va atamalarni tarjima qilish.

OG'ZAKI NUTQ AMALIYOTI hamda O'QISH VA YOZISH AMALIYOTI

Hayotiy tanlovlar. Kontekstni aniqlash. Bizni o'rab turgan dunyo. Sinonimlar va qayta ifodalashlarni aniqlash. Tasniflash. Til va muloqot. Vizual ko'p tanlovli savollar. Jadvalni to'ldirish. Qayta ifodalashda nominalizatsiya. Gaplarni to'ldirish. Fan va texnologiya. Chalg'ituvchi ma'lumotlarni aniqlash va ulardan qochish. Moslashtirish (Matching). Harakatda bo'lish. Xulosalash. Do'stlar va oila. Raqamlar va harflarni tinglash. Forma/shakllarni to'ldirish. Notiqning munosabatini aniqlash. Vaqt. Tuzilish va oqimni tushunish, sxemani to'ldirish. OAV (Ommaviy axborot vositalari). Maqsad va funksiyani tushunish. Shaxsiy savollarga javob berish. Ko'ngilochar mavzular uchun so'z boyligi. Oziq-ovqat haqida fikrlarni ifoda etish. Foyda va zarar mavzulari. Maxsus ma'lumotlarni tinglash. Taqqoslash. Ishga aloqador mavzular uchun so'z boyligi. O'qituvchi bo'lish. Implikatsiyani tushunish.

Rozi bo‘lish va rad etish. Ta’lim mavzulari uchun so‘z boyligi. Ta’lim. Xususiy va davlat ta’limi. O‘qituvchining sovg‘alari. San’at. Dunyoning eng mashhur tabassumi. Tarjimonlik kasbi. Ilmiy tadqiqot. Tarix. Ming yillik shaxs. Toshlarni tushunishga yordam bergan inson. Tarix: haqiqat yoki badiiyat. Inson ongi. Jinoyat. Uy va uy hayoti. Munosabatlar. Sayohat. Sayyohlik manzillari. Dengiz bo‘yida. Bo‘sh vaqt. Sport va siyosatni aralashtirish. Biznes. Moliya va pul mavzulari. Mutaxassislik va soha mutavassislari. Sog‘liq. Atrof-muhit. Sport. Yozish: Hisobot yozish. Yozish: Kundalik yozuvlarini yozish. Yozish: Mulohazalarni yozish. Paragraflar va yangiliklarni yozish. Norasmiy va rasmiy xatlar yozish. Xulosalar yozish. Akademik insholar yozish. Sharhlar yozish.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo’yicha davlat attestatsiyasi sinovini o’tkazish tartibi va uni baholash mezoni

Ushbu fanlarga madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi, tarjima nazariyasi va amaliyoti (madaniyatlararo kommunikatsiya aspektida tarjima amaliyoti) hamda og’zaki va yozma nutq amaliyoti fanlaridan davlat attestatsiyasi yozma ish va og’zaki savol-javob shaklida o’tkaziladi. Yakuniy davlat attestatsiya o’tkazish uchun savolar majmuasi attestatsiyadan oldin belgilangan tartibda talabalarga yetkaziladi.

Yakuniy attestatsiya o'quv vazifalariga ko'ra o'tilgan nazariy ma'lumotlar va amaliy malakalarni yakuniy tekshiruv orqali baholashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan davlat attestatsiyasi tasdiqlangan tartibda yozma va og’zaki vazifalar asosida o'tkaziladi. Talabalar tomonidan berilgan javoblarning har biri tasdiqlangan baholash mezonlari asosida izohlanadi va baho tizimidan kelib chiqib qo'yiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasini o’tkazish uchun 50 ta savol attestatsiyadan oldin talabalarga yetkaziladi. Attestatsiya biletlari 4 ta savoldan tashkil topadi. Fakultet dekan va kafedra mudiri tomonidan imzolanib, muhrlangan konvertlarga solinadi. Biletning birinchi va ikkinchi savoliga yozma javob beriladi, biletning uchinchi savolida berilgan matn o’zbek (yoki rus tiliga) tarjima qilinadi. To’rtinchi topshiriqda berilgan savollarga og’zaki javob beriladi.

Yozma ishlarni tekshirish va baholash 5 baholik shkalada amalga oshiriladi. Barcha 3 ta javoblarga qo'yilgan baholar yig'ib chiqiladi, birinchi savolga 30 ball, ikkinchi savolga 30 ball va uchinchi savolga 40 ball beriladi. Ballar shkalasi baho shkalasiga o’girilib “5 baho” lik shkalada baholanadi va bitiruvchining fan bo’yicha yakuniy davlat attestatsiyasi bahosi aniqlanadi.

Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish mezonlari

Baholash usullari	Yozma ishlar, og'zaki so'rov
Baholash mezonlari	**5 – "a'lo"** - fanning tarixiy rivojlanish bosqichlari, uning nazariy jihatlarihaqida to'liq tasavvurga ega bo'lgan; - fanning asosiy tushuncha va kategoriyalari, til o'qitishning turli metodlari o'rtasidagi farqlar, ularning mazmun-mohiyati haqida to'liq tasavvur hosil qila olgan; - tegishli savolning mohiyatiniqisqa va lo'nda ifodalab, unga yaqin bo'lgan tushunchalar bilan bog'lab, bayonda mantiqiy yahlitlikka erishilgan bo'lishi kerak; - chet tili va ona tilining asosiy me'yorlarini juda yaxshi biladigan; - ta'lim texnologiyalariga oid muammolarni yozma va og'zaki tarzda mukammal ifoda eta olgan; - chet tili va ona tilida ravon yozma va og'zaki nutq ko'nikmalariga ega bo'lgan, o'z fikrini aniq va tushunarli ifodalaydigan talaba "a'lo" baholanadi.
	4 – "yaxshi" - fanning tarixiy rivojlanish bosqichlari, uning nazariy jihatlari haqida ma'lum darajada tasavvurga ega bo'lgan; - fanning asosiy tushuncha va kategoriyalari, til o'qitishning turli metodlari o'rtasidagi farqlar, ularning mazmun-mohiyati haqida ma'lum darajada tasavvur hosil qila olgan; - savolning mohiyatini atroflicha yondashgan holda yoritib, uni misollar va boshqa tushunchalar bilan bog'lashga harakat qilkgan va mantiqiy yahlitlikka erishgan bo'lishi kerak; - chet tili va ona tilining asosiy me'yorlarini yaxshi biladigan; - ta'lim texnologiyalariga oid muammolarni yozma va og'zaki tarzda ifoda eta olgan; - chet tili va ona tilida ravon yozma va og'zaki nutq ko'nikmalariga ega bo'lgan, o'z fikrini aniq va tushunarli ifodalashda qo'pol xatolarga yo'l qo'ymaydigan talaba "yaxshi" baholanadi.

	3 – "qoniqarli" - fanning tarixiy rivojlanish bosqichlari, uning nazariy jihatlari haqida tasavvurga ega bo'lgan; - fanning asosiy tushuncha va kategoriyalari, til o'qitishning turli metodlari o'rtasidagi farqlar, ularning mazmun-mohiyati haqida tasavvur hosil qila olgan; - savolning mohiyatini yuzaki (yoki qisman) ochib bergan, u bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarga misollar keltirish bilan chegaralangan bo'lishi mumkin; - chet tili va ona tilining asosiy me'yorlarini o'rta darajada biladigan; - ta'lim texnologiyalariga oid muammolarni yozma va og'zaki tarzda ifoda eta olish ko'nikmalarini to'liq egallamagan; - chet tili va ona tilida ravon yozma va og'zaki nutq ko'nikmalariga ega bo'lmagan, o'z fikrini aniq va tushunarli ifodalashda xatolarga yo'l qo'ygan talaba "qoniqarli" baholanadi.
	2 – "qoniqarsiz" - fanning nazariy jihatlari haqida tasavvurga ega bo'lmagan; - fanning asosiy tushuncha va kategoriyalari, til o'qitishning turli metodlari o'rtasidagi farqlar, ularning mazmun-mohiyati haqida tasavvur hosil qila olmagan; - yuqoridagi talablar bajarilmagan yoki javob yozilmagan bo'lsa; - chet tili va ona tilining asosiy me'yorlarini o'zlashtira olmagan; - ta'lim texnologiyalariga oid muammolarni yozma va og'zaki tarzda ifoda eta olish ko'nikmalariga ega bo'lmagan; - chet tili va ona tilida ravon yozma va og'zaki nutq ko'nikmalariga ega bo'lmagan, o'z fikrini aniq va tushunarli ifodalashda juda qo'pol xatolarga yo'l qo'ygan talaba "qoniqarsiz" baholanadi.

Baholash mezonlari

O'zbekiston tizimi	Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS – European Credit Transfer System)	O'zbekiston tizimi
5 – a'lo	"A"	90 – 100
4 - yaxshi	"B"	70- 89,9
	"C"	
3 - qoniqarli	"D"	60-69,9
	"E"	
2 - qoniqarsiz	"F"	0 – 59,9

Adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Joanna Preshous, Listening & Speaking for IELTS, 2014.
2. Malcolm Man, Steve Taylor-Knowles Improve your skills (Listening and speaking for advanced) Macmillan London, 2011.
3. Holliday A, Hyde M. & Kullman J. Intercultural communication Routledge, 2010.
4. Фрик Т.Б. Основы теории международной культурной коммуникации: учебное пособие/Томский политехнический университет. - Томск: Изд-во Томского политехнического университета. 2013. – 100 с.
5. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Darslik. – Toshkent, 2012.
6. Гузикова М. О., Фофанова П. Ю. Основы теории межкультурной коммуникации: [учеб. пособие] / М.О.Гузикова, П.Ю. Фофанова; М-во образования и науки Рось. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург: Изд-во Урал.ун-та, 2015. — 124 с.
7. Novinger T. Intercultural communication: a practical guide / by Tracy Novinger. – University of Texas Press, Austin. 2001. 225 p.
8. Fowler, W.S. Fowler Proficiency Reading. New Editions. 2002.
9. Anne Pallant. English for Academic Study. Writing. Garnet publishing. 2012.
10. Vince, Sunderland P, Advanced language Practice. English grammar and vocabulary Macmillan, 2003,326p
11. Гарбовский Н.М. Теория перевода. Дарслик. – М., 2005.
12. Садохин, А.П. Межкультурная коммуникация: учебное пособие / А.П.Садохин. – М.: Альфа-М; ИНФРА-М, 2004. – 288с.

13. Improve your Skills Listening & Speaking skills for IELTS. Joanna Preshous. Macmillan, 2014.
14. Muminov O.M. and others. Written Translation. Part I, II.Tashkent. 2010.-272p.
15. Muminov O. A Guide to Simultaneous Translation – Tashkent, 2005.
16. Muminov O. A Guide to Consecutive Translation. - Tashkent, 2013.
17. Muminov O. Khodjaeva S., Rahimova N., Sultanova S., Inamova D. Practical Course in Translation. – Tashkent, 2010, Volumes 1, 2.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
5. Chris Gough, English vocabulary organizer, 2018.
6. Palgrave Macmillan. American Literature Readings in the first Century, USA, 2011.
7. Robinson, Douglas, ed. (2002), Translation Theory From Herodotus to Nietzsche. Manchester: St. Jerome.
8. Vince, Sunderland P., Advanced language Practice. English grammar and vocabulary Macmillan, 2003, 326p.
9. Белая, Е.Н. Теория и практика межкультурной коммуникации / Е.Н. Белая. – М.: Форум, 2011. – 208 с.
10. Зинченко, В.Г. Словарь по межкультурной коммуникации / В.Г. Зинченко. – М.: Флинта: Наука, 2010.
11. Леонтович, О.А. Введение в межкультурную коммуникацию: учеб.пособие /О.А. Леонтович. – М.: Гнозис, 2007. – 368 с.
12. Рот, Ю. Межкультурная коммуникация. Теория и тренинг: учебнометодическое пособие / Ю. Рот, Г. Коптелseва. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006.– 223 с.
13. Садохин, А.П. Межкультурная коммуникация / А.П. Садохин. – М.: Альфа - М: Инфра-М., 2010.
14. Тер-Минасова, С.Г. Война и мир языков и культур: вопросы теории и практики: учеб. пособие. – М.: АСТ: Астрель: Хранитель, 2007. – 286 с.

15. Тер-Минасова, С.Г. Язык и межкультурная коммуникация / С.Г.Тер-Минасова. – М.: Изд-во МГУ, 2008. – 352 с.
16. Baker M. In other words. London: Routledge. 2011- 332 p.
17. Kambarov N.M. Written Translation. Tashkent. 2018.
18. Kambarov N.M., Raupova M.N. Written Translation. Tashkent. 2018
19. Slepovich V.S. Translation difficulties. - Minsk «Tetralit», 2014.-235.
20. Яшина Н.К.Учебное пособие по письменному переводу. Владимир-2016.
21. Гарбовский Н.М. Теория перевода. Дарслик. – М., 2007.
22. Jessica Williams. Reflect 5 Reading and Writing. National Geographic Learning. 2021.
23. Tania Pattison. Reflect 6 Reading and Writing. National Geographic Learning. 2021.
24. Inside Reading Student's Book 3 and 4, Second edition. Oxford University Press 2012.
25. Sam McCarter. Improve your reading skills. Cambridge. 2010.
26. David Bohlke; Nancy Douglas. Reading explorer. All levels. National Geographic learning. 2015.
27. Keith S. Folse, April Muchmore-Vokoun, Elena Vestri Solomon. Great Writing Student's Book 4, Fourth Edition. National Geographic Learning. 2014.

"Tasdiqlayman"

Rektor _____ I.Tuxtasinov

2025 - yil "____" - _____

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETINI 2024-2025 O'QUV YILIDA 60230400–MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYALARNING LINGVISTIK TA'MINOTI (INGLIZ TILI) TA'LIM YO'NALISHI BITIRUVCHI TALABALARINING UMUMKASBIY VA IXTISOSLIK FANLARIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI BO'YICHA NAMUNAVIY SAVOLLAR

60230400–MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYALARNING LINGVISTIK TA'MINOTI (INGLIZ TILI) TA'LIM YO'NALISHI 2024-2025-O'QUV YILIDA BITIRUVCHILAR UCHUN UMUMKASBIY VA IXTISOSLIK FANLARIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA SAVOLLARI

VARIANT 1.

Task 1. Writing

CASE STUDY

John has recently moved to a different town with his parents, because they found better jobs. As he hadn't had the chance to meet people and make friends yet, he decided to find an extracurricular activity to do after school. He searched for lessons or activities available and he found an incredible offer about some ballet classes. On Wednesday, after school, he went to enroll in the lessons. When he entered the class, the girls that were already there were really surprised and staring at him. After he explained that he wanted to attend the lessons, the girls started pointing at him, laughing. The teacher did not react at all and looked really surprised. John ran out of the class, crying.

Questions

- Do you think there are stereotypes in the case of John? Could you mention some?
- How do you think John feels about this situation?
- Do you think that something like that could happen in real life?

- How do you think you would react if something like that happened in your school?

Task 2. Write answers on the discipline of Theory of Intercultural Communication.

Question: "Foreign" culture and the problem of ethnocentrism.

Task 3. Translate the given text into Uzbek (or Russian).

Artificial intelligence (AI) refers to the ability of computers or machines to perform tasks that traditionally require human intelligence, such as visual perception, speech recognition, decision-making, and language translation. AI has advanced rapidly in recent years, allowing for the development of self-driving cars, virtual assistants, and intelligent robots.

One of the key benefits of AI is its ability to process large amounts of data quickly and accurately, allowing for more efficient decision-making and problem-solving. However, there are also concerns about the potential negative effects of AI, such as the displacement of jobs and the possibility of bias in decision-making algorithms.

Despite these concerns, AI is expected to continue to play an increasingly important role in many industries, including healthcare, finance, and transportation. As the technology advances, it will be important to ensure that it is used in a responsible and ethical manner.

Task 4. Speaking

Immigration

- What are some of the different reasons people move to other countries?
- What problems do immigrants face in their new countries? How would you deal with these problems if you were an immigrant?
- What rights should new immigrants have? Should they be able to work or vote, for example?
- Should your government limit the number of people entering the country? If so, under what circumstances? What requirements should there be for people who want to immigrate?
- Is immigration good or bad for the economy? What effect does it have on wages and the employment rate? Why might a country need many immigrants?
- Are immigrants more or less productive than the native-born population?

FANLAR BO'YICHA NAMUNAVIY SAVOLLAR

Namunaviy savollar:

International Communication Theory

1. What are the primary components of the Shannon-Weaver model of communication?
2. How do cultural differences impact international communication?
3. What role does non-verbal communication play in cross-cultural interactions?
4. How can technology enhance or hinder international communication?
5. What is the significance of the Hofstede dimensions in understanding communication styles?
6. How does globalization affect local communication practices?
7. What are the challenges of communicating in a multicultural environment?
9. How do power dynamics influence international communication?
10. What strategies can be used to overcome language barriers in international settings?
11. How does the concept of "face" influence communication in different cultures?

Translation Theory

12. What are the key principles of dynamic equivalence in translation?
13. How does the Skopos theory redefine the purpose of translation?
14. What challenges do translators face when dealing with idiomatic expressions?
15. How do cultural nuances affect translation accuracy?
16. What is the difference between literal and free translation?
17. How can technology, such as machine translation, impact the field of translation?
18. What ethical considerations should translators be aware of?
19. How do different translation strategies affect the reception of a translated text?
20. What role does context play in the translation process?
21. How can translators ensure fidelity to the source text while maintaining readability?
22. Four Language Skills

Listening

23. What techniques can be used to improve listening comprehension in a second language?
24. How does active listening differ from passive listening?
25. What role does context play in understanding spoken language?
26. How can listening skills be assessed effectively in language learners?

Speaking

27. What strategies can help language learners improve their speaking fluency?
28. How does pronunciation influence effective communication?

29. What are the common barriers to effective speaking in a foreign language?
30. How can role-playing activities enhance speaking skills in learners?

Reading

31. What strategies can be employed to enhance reading comprehension in a foreign language?
32. How does background knowledge influence the interpretation of a text?